



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA BOLONYA JARAYONI

Yuldasheva Kamola Miraliyevna

Oriental universiteti o'qituvchisi

feruzayuldasheva689@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lismuassasalarida ta'litmizini modernizatsiyalash masalalari, bunda ilg'or dunyo tajribasini tatbiq etish masalasi yoritilgan. Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlarda oliy ta'limgining rivojlanishi Bolonya jarayonining umumiy yo'nalishlarini e'tiborga olish asosida bormoqda.

Kalit so'zlar: strategik boshqaruv, sifat monitoring, Bolonya jarayoni

XXI asrda ro'y berayotgan islohotlarning katta to'lqini davlat va jamiyat hayotining barcha sohalari kabi ta'lismi sohasini ham chetlab o'tmadi. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'litmiz sohasi zamonaviy ta'litmiz talablariga moslashish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Ta'litmizni zamon talablariga moslashtirishning bosh maqsadi ta'litmizni barqaror rivojlantirib borish mexanizmini yaratishdan, milliy oliy talim tizimining eng yaxshi an'analarini qayta shakllantirish va rivojlantirishdan, mamlakatimiz milliy ta'litmiz tizimining xalqaro ta'litmiz integratsiyalananishi va unda o'zining munosib o'rnnini egallashini ta'minlashdan iboratdir.

Ta'litmizini modernizatsiyalash ommaviy axborot vositalarida, jamiyatda va kasbiy muhitda diqqat-e'tibor markaziga tushadigan munozaralarni keltirib chiqaradi. Bunda ta'litmizini modernizatsiyalash bo'yicha mazmuniga va ketma-ketligiga ko'ra turli-tuman bo'lgan chora-tadbirlar – modernizatsiyalash zarurligini qat'iyan rad qilishdan tortib to taklif etilayotgan modernizatsiyalash tadbirlari majmuasini shubhasiz qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan mulohazalar bildirilmoqda. Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlarda oliy ta'limgining rivojlanishi Bolonya jarayonining umumiy yo'nalishlarini e'tiborga olish asosida bormoqda. Konferensiyalar va yig'ilishlarda keng yo'lga qo'yilgan muhokamalar natijasida bu mamlakatlarda Bolonya jarayoni tamoyillarining joriy qilinishi amalga oshirilmoqda.

Yevropa mamlakatlardagi ta'litmizining bir-biriga yaqinlashishi jarayoni XX asrning 70-yillari o'rtasidan boshlanib, bu davrda Yevropa kengashi ta'litmiz sohasida



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

hamkorlikning birinchi dasturi haqidagi Rezolyutsiyani qabul qildi. 29 ta Yevropa mamlakatlarining ta'lif vazirlari ishtirokida Bolonya Dekaratsiyasi deb nomlangan hujjat imzolanib, bu keyinchalik Bolonya jarayoni nomini oldi.

G.I.Gladkovning ma'lumotiga ko'ra, bu jarayonning maqsadi bo'lib quyidagilarga erishish sanaladi.

- Fuqarolarning mobilligini ishga joylashish imkoniyati bilan rivojlantirishning asosiy yo'nalishi sifatida Yevropa oliv ta'lif hududini tuzish,
- milliy ta'lif tizimini boshqa davlatlar ta'lif tizimlari bilan taqqoslanuvchan bo'lishini e'tiborga olish va OTMlarning dunyoning yetakchi oliv ta'lif muassasalari bilan raqobatbardosh bo'lishini yana-da kuchaytirish,
- oliv maktab, institut va universitetlarning mavqeini dunyo bo'ylab yana-da tanitish, universitetlar yevropacha ong tashuvchilar sifatida olib qaraladigan yevropacha madaniy qadriyatlarni rivojlantirishda universitetlarning markaziy o'rnnini oshirish.

Har bir mamlakat Bolonya Deklaratsiyasiga ixtiyoriy tarzda qo'shiladi. Bu deklaratsiyani imzolash bilan ular o'z zimmalariga ma'lum bir majburiyatlarni olib, bu majburiyatlar majburiy, tavsiyaviy va fakultativ xususiyatlarga ega bo'ladi.

Bolonya jarayoni parametrlari

Majburiy parametrlar	Tavsiyaviy parametrlar	Fakultativ parametrlar
<ul style="list-style-type: none"> - oliv ta'lifning uch darajali tizimi; - ECTS (European Credit Transfer and Accumulating System) Yevropa kreditni ko'chirish va to'plash tizimi akademik kreditlari; - OTM talabalari, o'qituvchilari va ma'muriy xodimlarining akademik mobilligi; - Diplomga yevropacha ilova; - Olyi ta'lif sifati nazorati; yagona Yevropa tadqiqotchilik makonini yaratish. - 	<ul style="list-style-type: none"> - yagona yevropacha baholar; - talabalarning faol jalb etilganligi; - kam ta'minlangan talabalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash; - butun umr bo'yli ta'lif olish. 	<ul style="list-style-type: none"> - ta'lif mazmunining tayyorligi yo'nalishlari bo'yicha uyg'unlashtirilishi; - talabalarni o'qitishning nochiziqli trayektoriyalari; - tanlov bo'yicha kurslar; - modulli tizim; - masofaviy o'qitish; - elektron kurslar; talabalar va o'qituvchilarning akademik reytinglari. -



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bolonya Deklaratsiyasiga qo'shilgan mamlakatlar Bolonya jarayonining asosiy talablariga mos holda milliy ta'lim tizimlarini isloq qilishlari lozim.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy tarzda tayyorlab kelingan mutaxassislar bilan bir qatorda bakalavrular va magistrlarni ham tayyorlashni ta'minlovchi o'qitish tizimi joriy qilindi. Bolonya jarayoni oliy ta'limning uch darajali tizimini ko'zda tutadi:

- a) birinchi daraja – bakalavriat ("bakalavr" darajasi);
- b) ikkinchi daraja – magistratura ("magistr" darajasi);
- v) uchinchi daraja – doktorantura ("doktor" darajasi).

Bolonya jarayonida o'qitishning ikkita modeli to'g'ri deb tan olingan.

Bolonya jarayonidagi o'qitish modellari

O'qish modeli	O'qitish modeli			
	Bakalavriat	Magistratura	Doktorantura	Jami
№1	3	2	3	8
№2	4	1	3	8

Bakalavriat – birinchi darajadagi oliy ta'limdir. Shuningdek, abituriyent o'qishga kirish vaqtida magistr darajasini olish majburiyatini o'z zimmasiga oladigan "integratsiyalashgan magistratura" shakliga ham yo'l qo'yilib, bunda bakalavr darjası magistrlik tayyorgarligi jarayonida "yutib yuboriladi". Ilmiy daraja (oliy ta'limning uchinchi darjası "fan doktori" deb nomlanadi. Tibbiy oliy o'quv yurtlari, san'at va boshqa maxsus oliy ta'lim muassasalari boshqa, shu jumladan, ko'p darajali modellarga riona qilishlari ham mumkin. Shunday qilib, hozirgi davrda oliy ta'lim modeli o'ziga xoslikka ega bo'ladi: "mutaxassis" darjası va "fan kandidati" ilmiy darjası Bolonya tizimida ko'zda tutilmagan.

Oliy o'quv yurtlarining avtonomiysi kengaytirilgan bo'lib, bu ECTS (European Credit Transfer and Accumulating System) Yevropa kreditni ko'chirish va to'plash tizimi – sermehnatlikning sinov birliklarini qayta hisobga olishning yevropacha tizimi tipi bo'yicha yirik ko'lamlı talabalar mobilligini qo'llab-quvvatlashning tegishli bo'lgan vositasi sifatida kreditlar tizimini joriy qilishga imkon beradi. Vazirlilik oliy ta'lim muassasalarida sinov birliklari tizimini joriy qilish bo'yicha yirik tajribani boshladi. Oliy ta'lim muassasalariga mamlakatdagi oliy o'quv yurtlari uchun sinov birliklarini hisoblash metodikasi ishlab chiqiladi. Mazkur metodika



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Oct., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mamlaktadagi ta'lif tizimining o'ziga xosliklarini e'tiborga oladi va oliy ta'lif muassasalariga Yevropa kreditni ko'chirish va toplash tizimi bilan mos keladigan sinov birliklarini hisoblashning ma'lum bir tartibini tavsiya qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-som farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019 y., 41-som, 765-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-som farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022 y., 4-som, 26-modda.
3. Байденко В.И. Болонский процесс: структурная реформа высшего образования Европы. - М.: Исследовательский центр проблемы качества подготовки специалистов, Российский Новый университет, 2002.
4. Владимиров В.Н., Решетникова И.В. Особенности государственного вуза как объекта стратегического управления. / Всероссийская научно-техническая конференция «Наука - производство - технологии -экология»: Сборник материалов: В 7 т. - Киров: Изд-во ВятГУ, 2008. Том 5. СЭФ-194с. С. 24-28.
5. Г.И.Гладков "БОЛОНСКИЙ ПРОЦЕСС". Справка для участников научно-практической конференции "Университетская политология России в национальном и европейском контекстах", 2004.
6. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. Т. «Турон-Иқбол». 2006. 196 бет.